

6-SINF "ONA TILI" DARSLIGIDA BERILGAN NUTQ SO'ZLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHGA OID O'QUV TOPSHIRIQLAR TAHLILI

Mardiyeva Dilnura Adhamjonovna

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Kattaqo'rg'on filiali
talabasi*

Annotatsiya: *Maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-sinf o'quvchilarida nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirish bosqichlari, usul va metodik tavsiyalar hamda o'quv topshiriqlari tahlili haqida fikr yuritiladi. Nutq so'zlashning dastlabki talablaridan biri sifatida adabiy til me'yorlarini egallash, so'z boyligini oshirish va o'z nutqida o'zgaralar fikridan unumli foydalanish.*

Kalit so'zlar: *nutq so'zlash, gapirish, tinglab tushinish so'zlash, so'z boyligi, talaffuz ko'nikmasi, o'zgaralar nutqi.*

KIRISH

Ona tili darsliklarida nutq ko'nikmasini shakllantirish jadal rivojlanib bormoqda. Darsliklar o'quvchilarning mustaqil fikrga ega bo'lishlariga qaratilgan bo'lib o'qib tushunish, tinglab tushunish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Nutq shakllaridan og'zaki nutq muloqot jarayonida ko'p qo'llaniladi, o'z faoliyati davomida inson kompetensiyalarini nutq so'zlash orqali namoyon qiladi. Shu ma'noda, o'quvchini umumta'lim maktabida nutq so'zlashga tayyorlash lozim. Ona tili ta'limida nutqiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, o'quvchilarda o'z fikrini og'zaki shaklda ravon ifodalash ko'nikmasi ijtimoiy hayot uchun juda zarur.

Tadqiqotchi M. Djakbarovanning ta'kidlashicha " O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirishda matni o'qib tushunish, tinglab tushunish hamda matn mazmuni ustida mantiqiy fikrlashga yo'naltiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqish samarali hisoblanadi. Demak, bugungi kunning eng muhim masalasi – ona tili ta'limini hayotga yaqinlashtirish, amaliy ahamiyatini kuchaytirishdir. Ona tili orqali o'quvchi tafakkurida olamning lisoniy manzarasi, milliy madaniyatlar shakllanadi. Agar ona tili oddiy o'quv predmeti emas, qadriyat sifatida o'qitilsa, o'quvchilarda o'z-o'zidan teran tafakkur va milliy g'urur shakllanadi. Shunda ona tilini o'rganishga o'quvchilarda katta qiziqish uyg'onadi. Ona tili orqali o'quvchilar milliy mentalitetni, hayotni, xalqning madaniy merosini o'rganishlari kerak. Albatta, bu pragmatik xarakterdagi o'quv topshiriqlari ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilar savol va topshiriqlar asosida tilning amal qilish qoidalarini o'rganadilar. Mashq tarkibida berilgan gaplar, matnlar o'quvchining lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi, biroq ular ustida qanday ish olib borish hali muammoligicha qolmoqda. Ona tili darslarida anglash, fahmlash, nutq so'zlash, insho yozishni o'rgatibgina qolmay, balki topshiriqlar orqali o'quv adabiyotlariga yo'naltirilsa, ona tilining jonli va tabiiy til ekanligiga ham ishonch hosil qilishadi [7,8]

G'.Hamroyevning ta'kidlashicha, muammoning bir uchi yana o'рта umumta'lim maktablarida ona tili o'qitish masalasiga borib taqaladi. Adabiy talaffuz – madaniyatlik belgisi. O'рта umumta'lim tizimida 5-sinfдан boshlab talaffuzning asosiy birligi hisoblangan nutq tovushlari “Nutq so'zlash” bo'limi tarkibida tizimli o'qitila boshlaydi. “Nutq so'zlash” bo'limi ta'limi taqozosiga ko'ra shu yerda o'quvchilarga nutq tovushlari bilan birga to'g'ri talaffuz hamda imlo qoidalarini singdirish talabi ham qo'yiladi.[17]

Zamonaviy darsliklarda topshiriqlar ma'lumotlarni xotiraga kirituvchi qurilma vazifasini bajaradi. O'quvchi tafakkuri, so'z zaxirasini boyitmasdan turib, uning ravon, mantiqan izchil, ta'sirchan nutqi haqida gap bo'lishi mumkin ham emas. Bugun dars jarayonida juda ko'p qo'llanilayotgan “Matn tuzing” qabilidagi topshiriqlar endi o'zini oqlamayapti. Chunki o'quvchi o'zidagi nochor so'z boyligi, tor tafakkuri bilan istalgan mazmunni, kutilgan saviyada yozib bera olmaydi. O'quvchida ayni mavzuga aloqador muhim, foydali, ta'sirli ma'lumotlar juda kam yoki umuman bo'lmaydi. Bu borada mashqlarga ham alohida e'tibor berish lozim. Ayniqsa, malaka hosil qiluvchi nutq mashqlariga. Nutq mashqlari yoki kommunikativ mashqlar Ushbu mashqlarning maqsadi ona tilining kommunikativ vazifalarini amalga oshirish va kommunikativ ko'nikmalarni o'rgatish (tinglash, gapirish, o'qish va yozish)dir. Nutq mashqlari-har doim ijodiy mashqlardir. Bu har doim turli darajadagi nutq teran vazifalari ekan. Mashqlarning asosiy xarakteristikasi – pragmatizm va motivasiya (o'quvchilarning tashabbuskorligi, motivasiyasini ta'minlash) hisoblanadi.[82-83]

G'.Hamroyevning fikrlariga qo'shilgan holda o'quvchilarga dastlab ravon nutq so'zlashlari uchun so'z zaxirasi zarur. Hozirgi kunda yangi yaratilgan darsliklarning matn ko'rinishadi mashq va topshiriqlardan keyin lug'atlar bilan boyitilganini guvohi bo'layapmiz. Bu lug'atlar shunchagi qolib ketmasdan har kuni o'quvchilarga topshiriq tarzida yodlatish maqsadga muvofiqdir. Chet tilini o'rganayotgan har bir o'quvchi har kuni yangi lug'at yodlaydi o'zbek tilida ham mana shunday lug'atlarlar yodlansa lug'at boyligi gapirish, yozish va nutq so'zlash ko'nikmasi yanada rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tilimizda mulozamat so'zlar mavjud bo'lib, undan nutq jarayonida samarali foydalanilmaydi. O'quvchilarni nutq so'zlashga o'rgatar ekanmiz, ularning nutqini mulozamat so'zlar bilan boyitish va nutq jarayonida o'rinli qo'llay olish ko'nikmasini rivojlantirishimiz zarur. Ingliz tilida uchraydigan “please”, “excuse”, “sorry” kabi birliklardan qolishmaydigan, nutqning ko'rki bo'lgan mulozamat so'zlardan foydalanish ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ham eng yaxshi yechim hisoblanadi. Zero, xalqimiz aytganiday: “Tilingda bo'lsa boling, kulib turar iqboling”.

6-sinf ona tili darsligida nutqni rivojlantiruvchi ko'plab mashq va topshiriqlar berilgan. Xususan

“Teleboshlovchi bo'lib qolsam” mavzusi o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib dars soati uchun 5- soat ajratilgan. Dastlab o'quvchilarga rasm asosida bir qancha savollar berib o'tilgan.

Topshiriq

1-topshiriq



1. Rasmlarda qanday kasb egalari aks etgan? Bu kasb haqida nimalarni bilasiz?

2. Rasmlarni bir soʻz bilan rasmiy va norasmiy deya taʼriflash mumkin. Bu ikki tushunchaning farqini berilgan rasmlar asosida qanday tushuntirasiz?

3. Rasmiy nutqda soʻzlovchi aynan nimalarga eʼtiborli boʻladi? Misollar bilan tushuntiring.

4. Norasmiy nutqda soʻzlovchi uchun nimalar cheklanmagan? Misollar bilan tushuntiring.

Birinchi navbatda oʻquvchilarga rasmiy va norasmiy nutq haqida tushuncha berib oʻtamiz. Chunki oʻquvchilar ongida ikkala rasmdagi ham teleboshlovchi degan tushuncha mavjud boʻladi. 1-rasmda teleboshlovchi rasmiy nutqda oʻz nutqini bayon qilayotgani aks ettirilgan. Rasmiy nutq adabiy til meʼyorlariga asoslangan holda bayon etiladi va rasmiy uslubda boʻladi. Rasmiy nutqni davlat qonunlari, aktlar, farmonlar, bayonotlar, shartnomalar, idora hujjatlari, eʼlonlar va boshqa rasmiy yozishmalarni televidenie orqali nutq ijro qilish mumkin. Teleboshlovchilar rasmiy nutqda kiyinish odobiga ham amal qilishlari lozim va bu birinchi rasmda yaqqol koʻrastilgan. 2-rasmda esa norasmiy nutq aks etgan bu nutqda kunlik xabarlar va tonggi yangiliklar va insonlarga koʻproq yaxshi kayfiyat ulashish maqsadida ijro etiladi. Norasmiy nutqda adabiy til meʼyorlariga amal qilinmaydi unda asosan shevadan ham foydalaniladi. Norasmiy nutqda kiyinish odobiga qisman amal qilinmaydi. Soʻzlashuv uslubidan koʻproq foydalanishadi. Biz oʻquvchilarga bu rasmlar orqali nutqni qanday holatlarda qoʻllash va ular rasmiymi yoki norasmiy ekanligini tushuntirib oʻtamiz.

2-topshiriq. Berilgan xabarni yetkazish maqsadida rasmiy yoki norasmiy nutq tayyorlash. Bu topshiriq ogʻzaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan. Yaʼni oʻquvchilarda soʻz boyligi, nutq ifodaliligi va gapirish koʻnikmalarini talab qilinadi. Bu topshiriq tufayli oʻquvchi rasmiy va norasmiy nutqda gapirishni oʻrganadi hamda rivojlantiradi.



O'quvchilarga quyidagicha topshiriq berishimiz mumkin: sinfdagi o'zining tengdoshlari orasidagi erishgan yutuqlarini tengdoshlaridan intervyu olgan holda bayon qilish. Bunda intervyu oladigan o'quvchilar xuddi teleboshlovchilar kabi savollar sonini avvaldan tuzib qo'yishadi va bu savollarga to'liq, mazmunli javob olishga intiladi.

SAVOLLAR RO'YXATI

1. Bu yutuqqa erishishingizda kimlar sababchi deb o'ylaysiz?
2. Bu yutuqqa erishishda qanday qiyinchiliklar bo'ldi?
3. Shu vaqtgacha qancha kitob o'qigansiz?
4. Sevimli kitobingiz haqida biro z so'zlab bering?
5. Kelajakdagi keyingi katta maqsadingiz?

Har bir o'quvchi rasmiy va norasmiy nutqdan foydalansa bo'ladi. Kimning nutqi ifodali va ravon chiqsa, nutqiga muvofiq baholanadi.

3-topshiriq. Televideniya faoliyat yuritadigan mutaxassislardan qaysi birining vazifasini bajarishni istaysiz? Ushbu topshiriqni bajarish asosida o'quvchilardan so'rovnoma o'tkazib olamiz. Har bir o'quvchi tanlab bo'lgandan keyin bu faoliyat yuritadigan mutaxassisligi qanday vazifa bajarishini aytishlari lozim.

Rejissyor- [fr. regisseur - boshqaruvchi lot. rego- boshqaraman] Sahna yoki kino asarini sahnalashtiruvchi badiiy rahbar; asarni tayyorlash, sahnaga qo'yish bilan bog'liq bo'lgan ijodiy ishlarning tashkilotchisi.

Grimchi- Grim qiluvchi mutaxassis. ◆ Grimchi rassom. n ◆ Premyera. Bugun hamma: rejissyordan tortib raqqosagacha, grimchidan tortib montyorgacha hayajonda

Prodyuser-(inglizcha: producer, produce — „yaratish“) — rivojlangan mamlakatlarda film ishlashda g'oyaviy-badiiy va tashkiliy-moliyaviy jihatdan nazorat qilishni amalga oshiruvchi kinokompaniyaning ishongan kishisi

Ssenarist-(italyancha: scenario) — 1) pyesa mazmunining qisqa bayoni, improvizatsiya teatri, tomoshasi, balet spektakllari, ommaviy tomosha va boshqa o'yinlar yaratiladigan syujet tuzilishi.

Operator-) kinotexnikada — kinofilmlarni suratga oluvchi, televideniyada eshittirishlarni uzatuvchi, apparatda ishlovchi mutaxassis — kinooperator, teleoperator

Suxandon- Bu ot tojik tilida nutq ma'nosini anglatadigan suxan otiga 'bil'- ma'nosini anglatadigan donistan fe'lining don hozirgi zamon asosini qo'shib hosil qilingan bo'lib, Gapga chechan', 'notiq' ma'nosini anglatadi

Telaboshlovchi- Teleko'rsatuvlar va radioeshittirish-larni olib boruvchi shaxs..

Ushbu topshiriq orqali kasblarning qanday vazifa bajarishliklarini va mas'uliyatliklarini o'quvchilar bilib olishadi. Teleboshlovchilik sohasiga taluqli bo'lgan mutaxassislarni tanib olishadi.

Manashu mavzu orqali sifat mavzusini ham tushuntirib o'tish darslikka kiritilgan. Ya'ni teleboshlovchi doir sifat belgilarini bilib olish va o'rganish mumkin.

Otga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan va "qanday?", "qaysi?" so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga sifat deyiladi.

4-topshiriq. Berilgan so'zlarni mos sifatlar bilan biriktirib, ko'chiring. Ushbu otlarga yana qanday sifatlarni biriktirish mumkinligini misollar bilan ko'rsatib bering. Bu topshiriqni 'Mosini top' metodi orqali darsni o'tamiz. Har bir o'quvchi sifat va ot so'z turkumidan so'z birikmasi topib birlashtirish.

Otlar	Sifatlar
ko'rsatuv	keng
Teleboshlovchi	musiqiy
yo'l	ko'ngilochar
Kasb	topqir
Mutaxassis	og'ir
Odam	obod
Qishloq	dangasa
Kishi	yaxshi
ko'rsatuv	qadrdon

Bu topshiriq sifat turkumini tushunishga qaratilgan.

5-topshiriq. UYGA VAZIFA.

O'zingiz qiziqqan yoki tanlagan kasbingizdagi insonga xos sifatlarni yozib chiqing. Sizda ushbu sifatlardan qaysilari borligi, qaysi sifatlar yo'qligiga tanqidiy nazar tashlang. Yozgan matningizni og'zaki bayon qiling.

O'quvchilarda bu mavzu teleboshlovchilik sohasiga qiziqitirishga, nutq so'zlashga, ifodali va ravon gapirishga yo'naltirilgan hisoblanadi. Bu mavzu orqali sifat turkumini ham bilib, uni ot so'z turkimi bilan bo'g'lanib kelishini tushunib oladi. 6-sinf ona tili darsligi mana shunday nutq ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan o'quv topshiriqlar ishlab chiqilgan. "Teleboshlovchi bo'lib qolsam" mavzusida o'quvchi o'z tengdoshlari orasidagi hayajonni ham yengishiga yordam beradi. Rasmiy va norasmiy nutqning farqini anglagan holda o'quvchida adabiy tilde gapirish ko'nikmasi oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbek tilshunosligining zamonaviy yo'nalishlari 2023-yil 25-oktabr [1;7-8]

2. G'ofir Hamroyev "Ona tilidan o'quv topshiriqlar tuzish metodikasi" (monografiya) 2021 [82-83]
 3. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar xalqaro ilmiy-metodik jurnali 2023 [7;17]
 4. "O'zbek tilining izohli lug'ati" A. Hojiyev 1982 1-2-j
- ILOVA .Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi darsligi asosida yangi nashr
Toshkent- 2022